

"Мұғалімдер Елеми" ғылыми журналы

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМІ ISLOHOTLARI VA 80 - YILLAR MUAMMOLARIGA QIYOSIY TAHLIL



Abstract:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida maktab gacha ta'lismizda olib borilayotgan islohotlar, ularni amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlar, hukumat tomonidan chiqarilgan qarorlar va Nizom, shuningdek, sobiq ittifoq davridagi ushbu tizim kamchiliklariga qiyosiy tahlil qaror, Nizom, masalalari yoritilgan.

Key words:

Islohot, maktabgacha ta'lismi, Nizom, sog'lom bola, vazirlik, ijtimoiy va iqtisodiy tahlil, nodavlat muassasa, Moskva, kengash.

Автор статьи

Shirinova Firuza Inoyatovna

Ma'lumki, maktabgacha ta'lismi uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta`minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6 -7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda olib borilgan islohotlarning eng muhimi bu, maktabgacha ta'lismi tizimi borasida olib borilayotgan ishlar sanaladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasasiga biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlar buning isbotidir. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta'lim muassasasida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinadi.

Место учебы (работы)

NavDPI. katta o'qituvchi

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta`minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6 - 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qibiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasasiga biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta'lim muassasasida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar

"Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" bilan tartibga solindi. Bir so'z bilan aytganda 2017 yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil

"Мугалімдер Елеми" ғылыми журналы

etilishi bu boradagi rejali vazifalarni yanada jadallashtirdi. Shuni ta'kidlash joizki, rivojlangan har bir jamiyatda mamlakat ijtimoiy hayotining asosini ta'lism tizimi tashkil etadi. Sobiq tuzum davrida ham ta'lism tizimida o'tkazilgan islohotlarning asosini umumta'lism maktabi tashkil etgan. Umumta'lism maktabi bilan chambarchas bag'liq tizim maktabgacha ta'lism tizimi bo'lib amalga oshirilgan ishlari har ikkalasi uchun ham birdek olib borilardi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lism tizimi ko'pgina viloyatlarda alohida e'tibor bilan rivoshlantirilgan. Bunga misol qilib Navoiy viloyatidagi holatni keltirish mumkin. Navoiy viloyati O'zbekiston Respublikasining eng navqiron sanoat shahri hisoblanadi. Navoiy viloyati tarixan yangi viloyat bo'lib, 1982 yilning aprel oyida tashkil etilgan. Viloyat hududi asosan kichik shaharlar va bir nechta tumanlardan iborat bo'lsada, shaxar va tumanlarda rus tiliga ixtisoslashgan maktab va maktabgacha tarbiya maskanlari anchagina edi. Til bo'yicha mutaxassis yetishmaganligi bois Rossiyaning Leningrad, Moskva, Ivanova shaharlaridan o'qituvchi va murabbiylar yuborilgan. O'sha paytda viloyatda maktabgacha tarbiya maskanlari - boqcha - yasli tarbiyachilarini tayyorlash uchun o'quv maskani yo'q edi. 1982 yil iyul oyida bo'lib o'tgan Xalq deputatlari soveti Navoiy viloyat ijroiya komitetining yig'ilishida bu masala kun tartibiga qo'yilib, Navoiy viloyatida maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurtini ochishga qaror qilindi. Shuningdek, viloyatda har yili maktabgacha ta'lism sohasida yangi inshootlar qurish, ushbu tizimni kengaytirish maqsadida mutaxassis kadrlar yetishtirib borish, ish sifatini yaxshilash uchun 5 yoshli va 6 yoshli bolalar bilan alohida ish tashkil etish kabi masalalar ko'rib chiqildi. Ushbu masala yil davomida bir necha marotaba viloyat Kengashida ko'rib chiqildi. Masalan, Navoiy viloyat Xalq deputatlari Kengashining 1982 yil 9 - iyul qaroriga ko'ra 5 va 6 yoshli tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya maskanlarini 19,2 foizdan, 36,6 foizga oshirish, Navoiy shahar vokzal hududida 280 o'rinni bino qurish rejalashtirildi.

Joriy yilda olib borilgan ishlari hammasi ham qoniqarli emasligini ta'kidlab o'tish lozim. O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining № 330 - Farmoni va Navoiy oblast Xalq deputatlari Ijroiya Komitetining 1982 yil 6 - dekabr 312-sonli farmoyishiga ko'ra amalga oshirilgan qurilish ishlari sifati va samaradorligi bayon etildi. Sessiya kun tartibidagi asosiy masala ta'lism tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish, mahalliy sovetlarga vazifalar yuklatildi. Bu masalada deputat A. Asatov ma'ruzasi tinglandi. Sifatli maktabgacha ta'lismni berish asoslaridan biri boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi.

O'tgan davr mobaynida ushbu yo'nalishda keng ko'lamli ishlari bajarilgan bo'lsada, bu ishlarning hammasi ham qoniqarli va sifatli emasligi aniqlangan. Mustaqillik sharofati bilan "Maktabgacha ta'lism" bakalavriat ta'limi yo'nalishi bo'yicha oliv ta'lism muassasalariga qabul qilish kvotalari oshirildi, mazkur yo'nalishda o'qish muddati uch yilgacha qisqartirildi. Demak, bu ishlarning barchasi sobiq tuzum davridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilganidir.

Mustaqillik davri islohotlari tufayli Respublika maktabgacha ta'lism tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv-metodik markazi negizida Maktabgacha ta'lism tashkilot direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi va unga maktabgacha ta'lism tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi yuklatildi. Maktabgacha ta'lism tizimini isloh qilish uchun qabul qilingan Konsepsiya muktabgacha ta'lism sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimini tahlil qilish quydagi tadbirlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi:

* xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko'p darajali uzluksiz ta'lism tizimini yaratish;

"Мугалимдер Елеми" тұлымы журналы

ta'lim va amaliyotni integratsiyalashtirgan holda xalqaro ta'lim standartlari, o'quv metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoli-vaziyatli o'qitish usullari va treninglari, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

* muktabgacha ta'lim tizimi xodimlariga qo'yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyatini samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash;

* ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jaib qilish yo'li bilan muktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, muktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil qilish uchun, shu jumladan mamlakat hududlarida, ta'lim muassasalarini sonini oshirish;

* muktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining xorijdagi yetakchi universitetlarda, ilmiy markazlarda va boshqa ta'lim tashkilotlarda stajirovka o'tashini tashkil qilish;

* Vazirlikning pedagogika kollejlari faoliyatini tashkil qilish, ularni malakali professor - o'qituvchilar tarkibi bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

* xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalarini bilan uzoq muddatli munosabatlarni yanada rivojlantirish, muktabgacha ta'lim sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasida ularning filiallarini ochish;

* tajriba almashish, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim va ilmiytadqiqot, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning muassasalarini bilan samarali idoralararo hamkorlikni chuqurlashtirish;

* o'zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta'minlaydigan kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish;

* muktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

muktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga zaruriy kasbiy kompetensiyalar ro'yxatini o'z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish;

* muktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iborat vazifalarini amalga oshirish chora tadbirdirlari belgilandi.

Muktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning sog'lom ovqatlanishini, ular sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish xizmatlari bilan ta'minlash, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat. Sog'lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha vazifalarini hal qilish uchun davlat muktabgacha ta'lim tashkilotlarda bunday xizmatlarni ko'rsatish qisman autsorsing shartlari asosida tadbirdorlik sub'ektlariga berilgan.

Muktabgacha ta'lim tashkilotlarda bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, muktabgacha ta'lim tizimidagi tibbiyot xodimlarining malakasini tizimli oshirish bo'yicha chora-tadbirdirlar faol qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, sog'lom avlodni tarbiyalash vazifalarini samarali hal qilish maqsadida barcha bolalarga sifatli muktabgacha ta'lim olish uchun bir xil imkoniyatlarni ta'minlovchi muktabgacha ta'limning samarali innovatsion tizimining shakllanishi, muktabgacha ta'limni insонning butun hayoti davomidagi uzlusiz ta'limning birinchi bosqichi sifatida belgilash, bolani shaxs sifatida jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda uning roli oshirilishi, muktabgacha ta'lim tashkilotlarining namuna va turlari xilma - xilligi asosida muktabgacha ta'lim tizimida institutsional o'zgarishlar amalga oshirilishi, mazkur sohada sog'lom raqobat muhitining yaratilishi, zamonaviy energiya va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish asosida muktabgacha ta'lim tashkilotlarining bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashning kengaytirilishi, ularning o'quv - metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yinlar va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar, mebel, kompyuter texnikasi, o'quv uskunalarini bilan

"Мугалімдер Елеми" ғылыми журналы

jihozlanishi, hamda Konsepsiyaning amalga oshirilishini tizimli monitoring qilish, umumiy muvofiqlashtirish, respublikada maktabgacha ta'limning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammoli masalalarни tezkor ko'rib chiqish va hal qilish Vazirlik tomonidan amalga oshirilib borilishi ta'kidlanadi. Bu amalga oshirilishi ko'zlangan maqsadlar zamirida sobiq tuzum davrida

Adabiyotlar .

- 1.P. Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi""O'qituvchi" 1993 y.
2. XD Navoiy viloyati Ijroiya Komiteti qarori. Protokol №2. F-1. S-1. 173. L. 157, 107-bet.
3. XD Navoiy viloyati Ijroiya Komiteti qarori. Protokol №2. F-1. S-1. 187. L. 157, 12-bet.
4. Maktabgacha ta'llim jurnalı. 2006 yil.